



ITALYAN TILIDAN O‘ZLASHGAN TASVIRIY SAN’AT  
TERMINLARINING SEMANTIK VA FUNKSIONAL  
XUSUSIYATLARI

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi  
Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

*Seytmuratova Ariuxan Ajiniyazovna*

*Elektron pochta: ariuseytmuratova@gmail.com*

*Annotatsiya*

Mazkur maqolada tasviriy san’at terminologiyasining shakllanishi, kelib chiqish manbalari va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritiladi. Asosan italyan tilidan kirib kelgan terminlarning tasviriy san’atdagi o‘rni, ularning turli texnika, uslub va janrlarni ifodalashdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, terminlarning tasnifi, semantik xususiyatlari hamda san’atshunoslikdagi qo‘llanish doirasi ilmiy asosda izohlanadi.

**Kalit so‘zlar:** tasviriy san’at, terminologiya, akvarel, freska, tempera, barokko, gotika, impasto, sfumato, san’at uslublari, texnika, janr.

Hozirgi kunda tasviriy san’at insoniyat madaniyatining ajralmas qismi sifatida nafaqat estetik, balki ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. San’atning rivojlanishi bilan bir qatorda uning terminologik tizimi ham shakllanib, boyib bormoqda. Tasviriy san’at terminologiyasi – bu san’atga oid tushunchalarni aniq va ixcham ifodalovchi ilmiy birliklar majmui hisoblanadi.

Ma’lumki, tasviriy san’at terminlarining aksariyati Yevropa, xususan, italyan tilidan kirib kelgan. Bu esa Uyg‘onish davrida Italiya san’atining yetakchi mavqega ega bo‘lganligi bilan izohlanadi. Natijada, akvarel, freska, tempera, barokko, gotika kabi ko‘plab terminlar xalqaro ilmiy muomalaga kirgan. [1] Bu tadqiqodning maqsadi – tasviriy san’at terminlarining ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish, ularning tasnifi hamda qo‘llanilish



xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tasviriy san'at terminlari asosan bir necha guruhlariga ajratiladi:

1. *Texnik terminlar*
2. *Uslub va yo'nalish terminlari*
3. *Janr va kompozitsiyaga oid terminlar*

Texnik terminlarga akvarel, akvatinta, freska, tempera kabi tushunchalar kiradi. Masalan, akvarel – suvda eriydigan bo'yoqlar yordamida bajariladigan texnika bo'lib, u yengillik va shaffoflik bilan ajralib turadi. Freska esa nam suvoq ustiga ishlanadigan qadimiy tasviriy usul hisoblanadi. Shuningdek, akvatinta metall plastinkada bajariladigan gravyura texnikasi sifatida san'atda muhim o'rin egallaydi. Tempera esa tabiiy bog'lovchi modda asosida tayyorlanadigan bo'yoq turi bo'lib, qadimiy davrlardan buyon qo'llanilib kelinadi.

Tasviriy san'atda uslubiy terminlar alohida ahamiyatga ega. Jumladan, barokko va gotika san'at tarixida muhim bosqichlarni ifodalaydi. Barokko uslubi o'zining murakkabligi, harakatchanligi va emotsionalligi bilan ajralib turadi. Gotika esa arxitektura va tasviriy san'at uyg'unligi, kompozitsiyaning murakkabligi bilan xarakterlanadi. [2] Bundan tashqari, bambochchanti kabi janrlar kundalik hayot manzaralarini tasvirlashga qaratilgan bo'lib, realistik yo'nalishning rivojiga xizmat qilgan.

Tasviriy san'atda ifoda vositalarini bildiruvchi terminlar ham keng qo'llaniladi. Masalan, impasto texnikasi bo'yoqni qalin surish orqali relyef hosil qilishga xizmat qiladi. Sfumato esa tasvirda yumshoq o'tishlarni yaratib, hajm va fazoni ifodalash imkonini beradi. Kyaroskuro (yorug'lik va soya qarama-qarshiligi) tasviriy san'atda dramatik effekt yaratishda muhim vosita hisoblanadi. [3] Ushbu usulni mashhur rassomlar keng qo'llagan.

Kartina, maket, mozaika kabi terminlar tasviriy asarning shakli va tuzilishini ifodalaydi. Mozaika rangli tosh yoki materiallar yordamida yaratiladigan monumental san'at turi hisoblanadi. Shuningdek, profil, karkas,

pedestal kabi tushunchalar tasviriy san'atning amaliy jihatlarini ochib beradi [4]. Bu terminlar san'at asarining qurilishi va tashkiliy tomonlarini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at terminologiyasi san'atshunoslik fanining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki amaliy ijod jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at terminlarining aksariyati xalqaro xarakterga ega bo'lib, ularning asosiy qismi italyan tilidan kirib kelgan. Bu esa san'at tarixida Yevropa, ayniqsa Italiya maktabining yetakchi o'rin tutganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, terminlarni ilmiy jihatdan tizimlashtirish, ularning yagona standart asosida qo'llanilishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu esa san'at ta'limi va ilmiy izlanishlarning rivojiga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Янь Ланьлань. Терминология живописи в русском языке (структурный и функциональный аспекты): канд. дисс. – М., 2014. – 333 с.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент, 2000.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “В” ҳарфи. – Тошкент, б. 61.
4. Сергеев В.Н. Терминология изобразительного искусства в русском языке XIX–XX вв.: дис. ... канд. филол. наук. – Л., 1964. – 217 с.

